NAMANGAN VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

# Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

# Namangan viloyatida kichik tadbirkorlik

**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, % da**




**2019- yil**




**2020- yil**




**2021- yil**

2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM**dagi ulushi **71,6** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **12,6** birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-iyunida **3411** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **7,1** foizga ko‘p demakdir.

## 2021- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **1230** ta, sanoatda **965** ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida **425** ta, qurilishda **222** ta, yashash va ovqatlanishda **162** ta, tashish va saqlashda **92** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari

## 2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da

| | |
|---|---|
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 97,0 |
| Sanoat | 46,5 |
| Qurilish | 96,8 |
| Investitsiya | 75,5 |
| Savdo | 92,9 |
| Xizmatlar | 65,5 |
| Eksport | 48,5 |
| Import | 75,0 |

| | |
|---|---|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 29 118 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 3 411 |

2021- yilning yanvar-iyunida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

## yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko‘rsatkichlari, % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

## 2021- yil yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar , % da







yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

## Hududlar bo‘yicha yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Hududlar bo‘yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## 2021- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da

2021- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Namangan shahri – 24,9 %, Chust tumani – 9,9 %, To‘raqo‘rg‘on tumani – 7,9 %, Chortoq tumani – 7,4 %, Pop tumani – 7,1 %, Uchqo‘rg‘on tumani - 7,0%, Uychi tumani - 6,9% hissalariga to‘g‘ri keldi.



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan shahar va tumanlar, birlikda




Ma’lumot uchun: 2021– yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘p salmog‘i, birlikda:

**Savdoda**
1230 ta

**Sanoatda**
965 ta

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida**
425 ta

**Qurilishda**
222 ta

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2021- yil yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 12,6 birlikni tashkil etdi.

**Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga ko‘ra***




2021- yilning yanvar - iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Namangan tumanida 15,2 birlik, Namangan shahrida 15,1 birlik, Mingbulloq tumanida 14,5 birlik, Chust tumanida 13,6 birlik, Chorotq tumanida 12,7 birlikni tashkil etgan.

**2021– yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)***



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

**Namangan viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2021- yil yanvar-iyun holatiga ko‘ra***

**Eng yuqori ko‘rsatkich**
**Namangan tumani - 15,2 birlik.**

**O‘rtacha ko‘rsatkich**
**Chortoq tumani - 12,7 birlik.**

**Past ko‘rsatkich**
**Yangiqo‘rg’on tumani - 10,2 birlik.**

2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tuman va shaharlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Namangan tumanida **15,2** birlik, Namangan shahrida **15,1** birlik, Mingbuloq tumanida **14,5** birlik, Chust tumanida **13,6** birlik, Chortoq tumanida **12,7** birlikni tashkil etdi.

**2021- yilning yanvar-iyunida har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda ***




*Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 107,1 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 42,0 % ini tashkil etdi.






yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

**2021 yilnig yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da**




2021- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida – 100,0%, Norin tumanida – 86,2 %, Kosonsoy tumanida – 63,2 %, Namangan shahriida – 63,0 % va Uychi tumanida – 61,5 %ni, eng past ko'rsatkich Mingbuloq tumanida – 3,6 %ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi




yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi

2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **217,2** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **75,5** % ini tashkil etdi.



2021- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Chortoq va Yangiqo'rg'on tumanlarida – 100,0 %, Uychi tumanida – 98,0 %, Norin tumanida – 94,2 %, Kosonsoy tumanida – 92,1 %, Pop tumanida – 85,3 %. Eng past ko'rsatkich Mingbuloq tumanida - 16,0 %ni tashkil etdi.

**2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **2928,6** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Namangan shahri (1393,3 mlrd. so'm), Uychi (306,0 mlrd. so'm), Namangan (230,2 mlrd. so'm), Kosonsoy (176,9 mlrd. so'm) va To'raqo'rg'on (170,5 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Uchqo'rg'on tumanida (55,3 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




**yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi**

2021- yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **46,5** % ni tashkil etdi.

## 2021- yil yanvar-iyun holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Chortoq va Yangiqoʻrg'on tumanlari (100,0%), Uychi tumani (73,2%), Kosonsoy tumani (70,1%), Namangan shahri (56,0%), Norin tumani (54,9%) tashkil etdi. Uchqo̦'rg'on tumanida (13,9%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past boʻlib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




**yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi**

2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **5816,3** mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **92,9** % ini tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **14,3** % ga o’sishi kuzatildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Namangan shahri (2600,8 mlrd. so‘m), Chust (514,2 mlrd. so‘m), Pop (435,3 mlrd. so‘m), To‘raqo‘rg’on (356,9 mlrd. so‘m) Namangan (270,8 mlrd. so‘m) va Uychi (270,2 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2021- yilning yanvar- iyunda hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o‘sish sur’ati**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati

### yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi




2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **2314,3** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **96,8** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **117,2** %ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Namangan shahri (625,6 mlrd. so'm), Namangan (200,7 mlrd. so'm), Uychi (247,4 mlrd. so'm), Kosonsoy (211,2 mlrd. so'm), Chust tumanlarida (139,5 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (132,8 mlrd. so'm) hamda Uchqo'rg'on (147,2 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

### 2021- yilning yanvar- iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati






yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi

2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1610,0** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **66,1** % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **105,2** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Namangan shahri (1073,9 mlrd. so'm), To'raqo'rg'on (223,2 mlrd. so'm), Chust (246,3 mlrd. so'm), Pop (216,4 mlrd. so'm), Kosonsoy (212,6 mlrd. so'm), Uychi (214,1 mlrd. so'm) va Namangan (200,4 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**2021- yilning yanvar- iyunida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati**



# 2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko‘rsatkichlari

**2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:**




Yuk tashishda

2021- yil yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 93,5 % ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 101,4 % ni tashkil qildi.




Yuk aylanmasida

2021- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 88,2 % ni tashkil etgan bo‘lib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 103,2 % ni tashkil qildi.




Yo‘lovchi tashishda

2021- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 97,5 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 102,0 % ni tashkil qildi.




Yo‘lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 90,9 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 101,1 % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil II chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnomada **1151**ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 406 (35,2%) tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 700 (60,8%) tasi sub'ektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 45(4,0%) ta sub'ektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsim-lanishi (ulushi) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 6,6 % (76 ta), sanoatda – 20,2 % (233 ta), qurilishda – 8,1 % (93 ta) , savdoda – 40,6 % (467 ta), xizmatlar sohasida – 24,5 % (282 ta) ni tashkil etdi.

**2021- yil II chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**






# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2021- yil II chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahri (385 ta), Pop (91ta), Chust (81ta), To‘raqo‘rg’on (76ta), Uychi (74 ta) va Uchqo‘rg’on (73ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2021- yil II chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, % da**



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2021- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning <u>joriy davrda</u> iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2021- yilning **II** choragida, o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdo sohasida 36,5 %ni, xizmatlar sohasida 36,2 %ni, qurilishda 34,4 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdoda 62,2 %ni, sanoatda 61,8 %ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 59,2 %ni tashkil etdi.

**2021- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig <u>yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli</u> bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




2021- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi xizmatlar sohasida 55,3 %ni, qurilishda 52,7 %ni, savdoda 50,6 %ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 56,6 %ni, sanoatda 48,9 %ni, savdoda 47,6%ni tashkil etdi.

.